

Rajabboyeva Go'zal Arabboyevna

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti o'zbek tili va  
adabiyoti 2-bosqich talabasi

Usmanova Ziyoda

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek  
adabiyotshunosligi kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyotimizning zabardast vakili Tog'ay Murod qissalaridagi milliy qadriyatlar talqini tahlili aks ettirilgan bo'lib, unda ijodkor asarlari qahramonlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlariga fikrlar bildirilgan. Har bir asarda muallif yashab o'tgan makon va zamon, ijtimoiy muhit gavdalaniadi.

**Kalit so'zlar:** Qadriyat, milliylik, xarakter, ruhiy kechinma, peyzaj, obraz, xalqonalik

**Abstract:** This article reflects the analysis of the interpretation of national values in the works of Togay Murod, the leading representative of our literature, in which opinions are expressed on the relationship of the heroes of the author's works to universal and national values. In each work, the author's place and time, social environment is embodied

**Key words:** value, nationality, character, spiritual experience, landscape, image, nationalism

San'at va adabiyot bemisl qudratli kuchdir. Ba'zan ulkan falsafiy asarlardan ko'ra, hayot ikir-chikirlarini ifodalagan asarlarning xaridorlari ko'p bo'ladi. Bu vaziyat hozirda ham qadimda ham o'zgarmagan. Har bir kasbning o'zining mutaxassis bo'ladi. Har bir ishning sarasini ajratib, mehnatning qaymog'ini oluvchilar bo'ladi. Adabiyotshunoslik sohasida esa tanqidchilar badiiy asar durdonalarini saralashdagi xizmatlari benazirdir. Tog'ay Murodning o'zbek nasriga qo'shgan hissasi, xususan, qissachilikdagi o'ziga xos tasvir va mahorat tanqidchilar tomonidan o'rganilgan. Mazkur ishlar natijasida Tog'ay Murod asarlari, qahramonlari kitobxonlar qalbidan chuqur o'rinn oldi. Anglanishi lozim ba'zi jihatlar tanqidchilar tomonidan oydinlashtirildi, o'z yechimini topdi. Yozuvchi qissalariga munaqqidlarning fikrlarini o'rganar ekanmiz, turli talqin va yondashuvlarga duch kelamiz.

O'zbek adabiyotshunosligida Tog'ay Murodning romanlari zamonaviy romanchiligidimizning eng yorqin yutug'i sifatida e'tirof etiladi. Yozuvchining "Otamdan qolgan dalalar" romani jamoatchilik va munaqqidlar e'tirofiga sazovor bo'lgan. Yozuvchi Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasi barcha o'quvchi ommasiga ma'lumki, bu asar hayot qiyinchiliklariga dosh bergen ikki taqdir haqidagi doston desak, chin ma'noda adashmagan bo'lamiz. Shuningdek, yozuvchi Odil Yoqubov "Muhabbat haqidagi bir kuy, to'g'rirog'i muhabbatga suyanib, barcha hayot dovullarini yengib o'tgan ikki dil, ikki pok inson haqidagi tipik bir qo'shiq desak yarashadi" degan fikrida juda katta badiiy haqiqat

bor. Asar 3 bobdan iborat bo'lib, ilk bobi asar qahramonlari Qoplonbek va Oymomoning to'y marosimlari shunday mahorat bilan tasvirlanadiki, o'zbegimning so'nmas qadriyatlari, urf-odatlari, rasm-rusmlari o'quvchi ko'z oldida yaqqol gavdalanadi. Turkiy xalqlarning qadim dostonchilik an'analari asosida, xalq og'zaki ijodi sifatida, yaxlit doston nomini olgan Alpomish dostoni ming yillik tarixga ega ekanligi barchamizga ma'lumdir. Qissada keltirilgan marosimlarning ildizi borib Alpomish dostonidagi voqealarga borib taqalishi, asar badiiy qiymatini oshirgan. Asarda badiiy tasvir va ifoda vositalariga keng o'rinn berilganki, tasvirning jonli va ifodaviylikni kuchayishiga xizmat qilgan. Qissaning keyingi boblarida qahramonlarning ruhiy holatini tabiat tasviri bilan parallel ravishda tasvirlanishi asarning ta'sir darajasini yanada oshirgan. Keling, shu o'rinda bir holatga e'tiborimizni qaratsak. "Ufq qorayib –qorayib keldi, qop qora bulutlar ko'pirib-ko'pirib toshdi, bulutlar yoyilib-yoyilib keldi," bir qarashda oddiygina tabiat tasviri berilganday tuyuladi, aslida parchada Qimmat momoning, Oymomoga farzandsizligini butun qishloq ayollari oldida, yuziga solib aytgan gapidan so'ng, uyiga yugurib ketayotgan qahramonning ruhiy holati bilan bulut detalini yonma yon qo'yadi, bu yerda bulut detali qahramonning ruhiy kechinmalarini to'la qonli ohib berishga xizmat qilgan. Shuningdek, professor Dilmurod Quronov badiiy adabiyotda peyzajni quydagicha izohlaydi: "Rang tasvir asarini yaxlit holda ko'ramiz: ya'ni uni avvaliga butunligicha ko'ramiz keyin butundan qismga (detallarga qarab) boramiz. Badiiy adabiyotdagi peyzajni qabul qilishda esa, aksincha, qismdan butunga qarab boriladi: avvaliga detallar bilan navbatma navbat tanishamizda, oxirida ko'z oldimizda, yaxlit manzara hosil bo'ladi." Darhaqiqat, qissada betgachoparlik, xasadgo'ylik, ko'rolmaslik kabi hislatlarga boy hisobchi obraq bilan qahramonning muloqati jarayonida mana shunday yaxlit manzaraga duch kelamiz. "Qoplon otamiz tok tomiriga egilmish ko'yi qoldi. Qaddini rostlashini-da bilmadi, rostlamasliginida bilmadi. Tok tomirida qimirlamish sariq chumolilarga tikilib qoldi". Professor Uzoq Jo'raqulov ta'kidlaganidek, "Portret va xarakter uyg'unligiga xos ikkinchi jihat qahramonlararo muloqotlarda, psixologik mubohazalar jarayonida ko'zga tashlanadi". Shuningdek qissaning sunnat to'y marosimida mezbon Qoplon ota bilan muomala kirishgan paytda undan "farzandlar katta bo'layaptimi" degan savoliga qahramonning ruhiy kechinmalari, izardorlari xatti harakatlari orqali namoyon bo'ladi. "Otamiz sergaklandi. Eshikka qarab-qarab qo'ydi. Boshini quyi egdi, dasturxon chetini qayirib o'ynadi, choynak qopqog'ini shig'illatib –shig'illatib ohib yopti". Shu satrlarni o'qiyotgan kitobxon ruhiyatiga Qoplon otaning holati ko'chib o'tadi, u kabi eziladi, istirob chekadi, joyi kelsa qahramon bilan ajib bir o'yga toladi, albatta, bu yozuvchining iste'dodidan darak beradi.

"Oydinda yurgan odamlar" qissasi personajlarida ichki kechinmalar, ruhiyat birinchi o'ringa chiqsa, "Yulduzlar mangu yonadi", "Ot kishnagan oqshom", "Momo yer qo'shig'i" qissalari tubdan farq qiladi, bunday olib qaraganda bir asarning ruhiyati, ikkinchisiga ko'chib o'tmagan go'yoki, boshqa-boshqa yozuvchilar yozgan qissalar deb o'ylaysiz. Masalan, "Yulduzlar mangu yonadi" qissasida asar bosh qahramoni Bo'ri polvon mardligi, dovyurakligi tantiligi bilan bir qatorda surxon polvonlarining kurashi hikoya qilinadi.

“Momo yer qo’shig’i” qissasida esa Pahlavon Daho nomini taxallus qilib olgan Tursun haqida, yani, takkaburligi tufayli jamiyatda o’zligini topa olmagan kishilar siy whole story of the creation of the portrait of Pahlavon Daho by Tursun. In the story, it is mentioned that the portrait was created by Tursun, a member of the community, due to his admiration for the hero. The story also mentions that the portrait was created in a secret place and was later discovered by the community members.

Tog’ay Murodning barcha asarlari xalq tilida yaratilganligi uchun ham, badiiy qiymatini yo’qotmagan desak, haqiqatga yaqin bo’ladi. Darhaqiqat, yozuvchining to’rtta qissasini o’qib, tahlil qilar ekanman, barchasida o’tkir emotSIONAL ta’siri kuchligi sababli o’quvchini hayajonga soladi, to’lqinlantiradi. Har bir ijodkor o’ziga xos uslub yaratadi. Bir so’z bilan aytganda, Tog’ay Murod hech qaysi yozuvchida uchramaydigan uslubda ijod qildi, o’zining nomini adabiyotga o’chmas qilib muhrlab ketdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Murod T. Ot kishnagan oqshom.-T. Sharq,1994.-B.253.
2. Murod T. Tanlangan asarlar/I jild/.-T:Sharq,2004.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.savod.o'rgatish.uz](http://www.savod.o'rgatish.uz)
5. МУСТАЕВ, Р. Д., УБАЙДУЛЛАЕВ, С. С., & Носирхонзода, А. Н. РОЛЬ СЕМЬИ, ОБЩИНЫ И ОБРАЗОВАНИЯ В РАЗВИТИИ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ДУХА У МОЛОДЕЖИ. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 71.
6. МУСТАЕВ, Р., ХАСАНОВ, Н., УБАЙДУЛЛАЕВ, С., & АЛИНАЗАРОВ, Н. В ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОМ ДУХЕ. МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО" Издательство Молодой ученый", (2), 458-459.
7. Мустаев, Р. Д., Хасанов, Н. Х., Убайдуллаев, С. С., & Алиазаров, Н. Н. (2023). ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОЕННЫХ КОМИТЕТОВ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. Мировая наука, (1 (70)), 115-119.
8. Мустаев, Р. Д. (2023). ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЗГЛЯДОВ НА ПАТРИОТИЗМ ВО ВЗГЛЯДАХ МЫСЛИТЕЛЕЙ ЭПОХИ ТЕМУРИДОВ. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 252-262.
9. Damirovich, M. R., Nurmuhammad, X., Saydaliyevich, U. S., & Nosirxonzoda, A. N. (2022). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MASALALARI. PEDAGOG, 1(4), 1411-1414.
10. Мустаев РД. ИЗУЧЕНИЕ РЕЛЬЕФА МЕСТНОСТИ ПО КАРТЕ. IJODKOR O’QITUVCHI. 2022 Nov 26;2(24):100-21.
11. Мустаев, Р. Д., & Юсупов, Ш. Б. (2022). ТОПОГРАФИК ХАРИТА ҲАҚИДА ТУШУНЧА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 900-904.

- 
12. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). POSITIONING NAVIGATION FROM SATELLITES TARGETING WITH TOOLS. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 978-983.
  13. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). JOY TURLARI VA ULARNING TAKTIK XUSUSIYATLARI. Scientific Impulse, 1(3), 1027-1032.
  14. Мустаев, Р. Д. (2022). ИЗМЕРЕНИЕ УГЛОВ И РАССТОЯНИЙ НА МЕСТНОСТИ БЕЗ КАРТЫ. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(10), 79-83.
  14. Alimov, S. S., & Yusupova, O. M. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF BORROWINGS FROM ENGLISH TO UZBEK LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 1-4.
  15. Mamadjanova, M. U. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG 'ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(5), 110-115.